

Ijtimoiy yordam olish uchun siz rayoniningizning (ro'yxatga turgan joyingizda) Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlariga (КЛЦОН) murojaat qilishingiz kerak.

“Семья” Shahar axborot-metodik markazidan ko'proq ma'lumot olishingiz mumkin: 190068, ул. Садовая, 55-57 uy, xat A, telefon: 8 (812) 417-31-51.

Turli hududlarda joylashgan Oilalar va bolalar uchun ijtimoiy yordam korsatish markazlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi saytda olishingiz mumkin: homekid.ru/spravochnik-po-rajonam.html

ROSSIYADAGI XORIJIY FUQAROLAR BOLALARNING TA'LIM OLISHLARI

Xorijiy fuqarolarning farzandlari agar ular va ota-onalaridan biri ro'yxatga turgan bo'lsa (migratsiya to'g'risidagi xabarnomasi bo'lsa) va migratsiya kartasi bo'lsa, bolalar bog'chasi va maktabga bepul borish huquqiga egadirlar.

Bolalar bog'chasiga kirish uchun siz ro'yxatdan o'tgan joyda Ko'p funktsional markaz - МФЦ bilan bog'lanishingiz kerak. МФЦ-lar ro'yxati: gu.spb.ru/mfc/list, 8 (812) 573-90-00

Maktab yoshidagi bolalarni ota-onalari farzandlarini maktabga yuborishlar qonun tomonidan talab qiladi.

Maktabga kirish uchun tuman o'quv bo'limi – РОНО-га murojaat qilishingiz kerak. Siz o'zingizning hududingizdagi ta'lim bo'limining aloqa raqamlarini internet orqali yoki jamoat tashkilotlariga murojaat qilib topishingiz mumkin.

Agar ota-onalar maktabga borib, rad javobini olishsa, yashagan hududlarining РОНО markaziga murojaat qilishlari kerak, u yerda tumandagi maktablardan birida joy topib berishlari shart.

Bolalar bog'chasi va maktabga topshiriladigan hujjatlar (barcha hujjatlarning nusxalari ham kerak):

- bolaning pasporti va ota-onasining pasporti
- bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvoynomasi;
- bolaning va ota-onadan birining migratsiya kartasi;
- bolaning va ota-onadan birining migratsiya ro'yxatiga olingani borasidagi xabarnomasi (bola maktabga yoki bolalar bog'chasiga boradigan tumanda);
- bolaning tibbiy kitobchasi;

- 026-sonli tibbiy ma'lumotnoma va emlash sertifikati (bolalar uchun tibbiy klinikalarida pulga to'ldiriladi);
- bolaning oldingi maktabidagi shaxsiy ishi (agar u oldin maktabga borgan bo'lsa).

Odatda, rus tilidagi hujjatlarning notarial tasdiqlangan tarjimai talab qilinadi va ba'zan bolaning tibbiy polisi ham talab qilinishi mumkin.

Ota-onalardan biri YIlning fuqarosi bo'lsa va mehnat shartnomasi mavjud bo'lsa, u holda bolaning registratsiyasi muddati ushbu hujjatda ko'rsatilgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Bolalar bog'chalarida odatda joylar etishmaydi, bunday holda uzoq vaqt kutishingizga to'g'ri keladi. Ammo, agar barcha hujjatlaringiz tartibda bo'lsa, darhol bolani maktabga olishlari shart!

Maktabga kirish bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa, 8 (812) 576-20-19, 8 (812) 576-18-36, 8 (812) 576-18-76, 576-18-74 raqamlariga murojaat qiling.

Bolaning huquqlari buzilgan taqdirda, Bolalar huquqlari bo'yicha vakilga murojaat qilishingiz ham mumkin: spbdeti.org, 8 (812) 576-70-00

Ba'zi hollarda, siz maktabga borganingizda, farzandingiz qaysi sinfga o'tishini aniqlaydigan o'qituvchilar suhbatidan o'tishi kerak. Agar rus tilini bilmaganligi sababli o'qituvchilar bolani past sinfga borishni taklif qilishsa, bu qo'rqinchli emas.

Agar siz maktabga tayyorgarlik ko'rish, rus tilini o'rganish va bolani yangi shaharga moslashishi uchun yordamga muhtoj bo'lsangiz, “Дети Петербурга” jamoatchilik fondi bilan bog'laning: detipeterburga.ru, +7 911 773-77-87. Tashkilot bepul darslar beradi, shahar lagerlari va bolalar uchun boshqa tadbirlarni amalga oshiradi.

Chet el fuqarolari har qanday qiyin vaziyatda ham bepul yuridik yordam olish uchun БФ «ПСП-фонд» xayriya jamg'armasiga murojaat qilishlari mumkin: psp-f.org, 8 (812) 337-57-85.

Rossiyadagi hayotga moslashish haqida, huquqiy yordam masalalari bo'yicha foydali ma'lumotlar va boshqa turli sohalarida maslahatlar migrussia.ru mintaqalararo axborot portalida mavjud.

Буклет «Социальная помощь, медицинская помощь, образование детей» (на узбекском языке).

Разработан БФ «ПСП-фонд».

Авторы-составители: Якимов А.Н., Алимова Е.Л.



БФ «ПСП-ФОНД»

**PETERBURGGA
XUSH KELIBSIZ!**



**IJTIMOYIY VA TIBBIY
YORDAM, BOLALARNI
TA'LIMGGA BERISHDA
KO`MAK**

MEHNAT MUHOJIRLARIGA

**2018
2019**

TIBBIY YORDAM

Chet el fuqarolarida tibbiy sug'urta polisi bo'lishi shart! Agar sizda polis bo'lmasa, siz chegaradan o'tkizmasliklari, jarima solishlari va hattoku Rossiyadan deport qilinishingiz mumkin! Tibbiy sug'urta polisi ikki xil bo'ladi:

- OMC (majburiy tibbiy sug'urta)
- ДМС (ixtiyoriy tibbiy sug'urta).

Yil davlatlari (Armaniston, Belarusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston)ning fuqarolari mehnat shartnomasi asosida ishlasalar, OMC (majburiy tibbiy sug'urta) polisini bepul olish huquqiga egalar.

Buning uchun ro'yxatdan o'tgan joyingizdagi klinikaga quyidagi hujjatlarni topshirishingiz kerak:

- pasport (shuningdek, rus tilida notarial tasdiqlangan nusxasi ham talab qilinishi mumkin);
- СНИЛС (shaxsiy hisob raqamingizning sug'urta raqami, uni Pensiya jamg'armasida yoki Ko'p funktsional markazlarda (МФЦ) olishingiz mumkin);
- mehnat shartnomasi (asl nusxasi!);
- migratsiya kartasi;
- ro'yxatdan o'tishish varaqchasi (migratsiya ro'yxatidan o'tkaningiz xaqidagi xabarnoma).

OMC polisi faqat bepul beriladi!

Chet el fuqarosida quyidagilar bo'lsa ham OMC polisini olish mumkin:

- vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma (ПВП);
- yashash uchun ruxsatnoma (ВНЖ);
- vaqtinchalik boshpana olish to'g'risidagi guvohnoma;
- qochoqlik guvohnomasi.



Boshqa barcha hollarda chet el fuqarolari ДМС - Ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisini sotib olishlari shart.

ДМС polisi sug'urta kompaniyalari idoralarida (kontaktlarni Internet tarmog'ida yoki jamoat tashkilotlarida) bor. Shuningdek, "Почта России" filiallarida ham bo'lishi mumkin.

ДМС polisi uchun narxlar o'zgarib turadi: polis qanchalik qimmat bo'lsa, ko'proq tibbiy yordam olish imkoniyatlar bor bo'ladi. Masalan, stomatologik parvarish faqat sug'urta dasturiga kiritilgan taqdirdagina polis tomonidan to'lanadi. ДМС polisini sotib olayotganda bu savollarni darhol aniqlab olishingiz kerak. Bolalar uchun (ayniqsa, maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar uchun) tibbiy sug'urta polisi kattalar uchun sug'urta polisiga qaraganda qimmatroq.

Esda tutishingiz muhim: agar ayol homiladorlik va tug'ruq vaqtida rejalashtirilgan tibbiy yordam olishni xohlasa, buni ДМС sug'urtasini olayotgan vaqtda aytishi zarur, chunki buning uchun maxsus sug'urta dasturi bor.

ДМС polisini olish uchun sizga quyidagilar kerak:

- pasportning rus tilida notarial tasdiqlangan nusxasi;
- migratsiya kartasi;
- ro'yxatga olish varaqchasi (migratsiya xabarnomasi).

ДМС polisi sizning ish beruvchingiz tomonidan berilishi mumkin (lekin bu undan talab qilinmaydi).



Rossiyada tezkor tibbiy yordam BEPUL beriladi!

Tezkor (yoki favqulodda) tibbiy yordam - bu inson hayotiga tahdid tug'ilgan hollarda ko'rsatiladigan yordamdir.

Tezyordam xizmatini 112 yoki 103 raqamlariga mobil telefonidan qo'ng'iroq qilib chaqirish kerak (telefon hisobingizda pul bo'lmasa yoki bloklangan bo'lsa ham).

Qachon tez yordam chaqirish kerak:

- nafas ololmay qolganda;
- hushidan ketganda;
- baxtsiz hodisa sodir bo'lsa (avtohalokat, balandlikdan tushib ketgan hollarda va hokazolarda);
- homilador ayollarda to'lg'oq tutganda, ahvoli og'irlashganda;
- og'ir shikastlanganda;
- zaharlanish holatida;
- qorinda o'tkir va tuxtovsiz og'riq bo'lganda;
- yuqori temperatura chiqqanda (38,5 dan yuqori);
- qon ketganda;
- va boshqa inson hayoti va sog'lig'iga tahdid tug'ilgan hollarda.



Sizga tibbiy polisingiz va hujjatlaringiz bo'lmasa ham tez yordam ko'rsatishlari shart!

Tez tibbiy yordam chaqirsangiz, kelishni istamasa yoki sizni davolashdan bosh tortsa, shikoyatlarni qabul qilish xizmatiga quyidagi raqamlar orqali murojaat qiling: 8 (812) 571-45-04.

Bundan tashqari, tibbiy yordam olish bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa, Sog'liqni saqlash vazirligining ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilishingiz ham mumkin: 8 800 200-03-89.

Shuningdek, Sankt-Peterburg Sog'liqni saqlash qo'mitasiga murojaat qilishingiz mumkin: Малая Садовая ko'chasi, 1, telefon 8 (812) 595-89-79, 8 (812) 571-09-06.

Tezyordam moshinasida olib ketilgan yordam to'g'risidagi ma'lumotni 8 (812) 573-66-66, 8 (812) 573-66-63 telefon raqamlari orqali bilishingiz mumkin.

Sankt-Peterburgdagi kasalxonalar, klinikalar, dorixonalar, travma markazlari, tug'ruqxonalar va favqulodda yordam xizmatlari telefonlari va manzillari bilan migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru saytida "Tibbiy yordam" bo'limida tanishishingiz mumkin.

Siz bepul va anonim ravishda OIV testini olishingiz, va tibbiy polissiz ham shifokor maslahatini olishingiz mumkin. Buning uchun siz OIV va yuqumli kasalliklar profilaktikasi va nazorat qilish markaziga murojaat qilishingiz mumkin:

Anonim xona: наб. Обводного канала, d.179, 1-qavat, 109-xona, Dush-Sesh: 09.00-19.00, Jum: 09.00-13.00, 8 (812) 575-44-05

OIV infeksiyasining oldini olish: наб. Обводного канала, d.179 (hovlida, kirish eshigidan o'ng tomonda) Dush-Juma: 12.00-18.00, +7 (952) 362-87-83

Batafsil: hiv-spb.ru

IJTIMOY YORDAM

Ijtimoiy yordamni yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan xorijiy fuqarolar (shuningdek, ularning oila a'zolari), shuningdek, Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining oila a'zolari olish huquqiga egalar.